

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**  
**XIX ASRNING IKKINCHIYARMIDA ROSSIYA IMPERIYASINING NAMANGAN UYEZDIDA HUDUDIIY-MA’MURIY ISLOHOTLARI VA ULARNING OQIBATLARI**

**Farxodjonov Farruh Oybek o‘g‘li**  
Namangan Davlat Pedagogika Intstituti taynch doktoranti  
**email:**farxodjonov1998nd@gmail.com  
**https://orcid.org/0009-0002-8665-7099**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18985602>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasi bosib olingach general-gubernatorlikka aylantirilganligi va ko‘plab ma‘muriy hududiy bo‘linishlar yuz berganligi keltirib o‘tilgan. Shuningdek Namangan uyezdining geografik joylashuvi va uni volostlarga, qishloq va ko‘chmanchi aholi jamoalariga bo‘linishi keltirilgan. Qolaversa Namangan uyezdi hududi ro‘y bergan hududiy o‘zgarishlar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Turkiston, uyezd, general-gubernatorlik, nizom, volost, qishloq, ko‘chmanchi aholi jamoalari, Namangan.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается процесс преобразования Туркестанского края в генерал-губернаторство после его завоевания Российской империей, а также изменения, произошедшие в системе административно-территориального деления. Освещаются географическое положение Наманганского уезда, его деление на волости, сельские и кочевые общины населения. Кроме того, приводятся сведения о территориальных изменениях, имевших место на территории Наманганского уезда.

**Ключевые слова:** Туркестан, уезд, генерал-губернаторство, положение (устав), волость, село, кочевые общины населения, Наманган.

**Annotation:** This article examines the transformation of the Turkestan region into a general-governorship following its conquest by the Russian Empire, as well as the changes that occurred in the system of administrative and territorial divisions. It also discusses the geographical location of Namangan uezd and its division into volosts, rural settlements, and nomadic population communities. In addition, the article provides information on the territorial changes that took place within the territory of Namangan uezd.

**Keywords:** Turkestan, uezd, general-governorship, regulation, volost, village, nomadic population communities, Namangan.

### **Kirish**

XIX asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo tarixida murakkab va tub burilishlar davri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda mintaqa xalqlarining siyosiy, ma‘muriy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar bevosita Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati bilan bog‘liq edi. Imperiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan olib borgan harbiy-siyosiy ekspansiyasi natijasida mintaqaning an‘anaviy davlat boshqaruvi tizimi barham topib, uning o‘rniga imperiya manfaatlariga mos keluvchi yangi ma‘muriy-boshqaruv tuzilmalari joriy etildi. 1860–1880-yillar davomida Rossiya imperiyasi tomonidan Farg‘ona vodiysi, jumladan Namangan hududining bosib olinishi ushbu jarayonning muhim bosqichlaridan biri bo‘ldi. Qo‘qon xonligining tugatilishi va uning o‘rnida Farg‘ona viloyatining tashkil etilishi nafaqat siyosiy hokimiyatning o‘zgarishiga, balki hududiy-ma‘muriy bo‘linishlar, yer-suv munosabatlari, sug‘orish tizimi va mahalliy aholi turmush tarziga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, uyezd, volost, qishloq va ko‘chmanchi aholi jamoalariga asoslangan yangi ma‘muriy tuzilmaning joriy etilishi mahalliy jamiyatning an‘anaviy boshqaruv mexanizmlarini tubdan o‘zgartirdi.

Rossiya imperiyasini bosqinchilik sisoyati oqibatida 1876-yilda Qo‘qon xonligi butunlay tugatilgach, uning o‘zagida tashkil etilgan Farg‘ona viloyati hududiy jihatdan 81.032 kv. verstni tashkil qilar, bu o‘lka umumiy yer maydonining 1/7 qismiga teng kelar edi. Viloyat ma‘muriy jihatdan 7 ta uyezd – Qo‘qon, Andijon, Namangan, Marg‘ilon, O‘sh, Chust va Chimyon (1879-yildan Isfara) uyezdlariga bo‘linadi, 1881-yilda Isfara uyezdi bekor qilinib, uning hududi Qo‘qon uyezdi tarkibiga kiritiladi.

Rossiya imperatori tomonidan 1886-yilda qabul qilingan “Turkiston o‘lkasini idora qilish to‘g‘risidagi Nizom” bo‘yicha Farg‘ona viloyati ma‘muriy hududiy jihatdan beshta uyezdga bo‘lingan, uyezdlar esa volostlarga, volostlar qishloq va ko‘chmanchi aholi jamoalariga bo‘lingan. 1904-yilga kelib, vodiydagi beshta uyezd – Marg‘ilon, Andijon, Namangan, Qo‘qon va O‘shda jami

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

100 volost (80 ta o‘troq va 12 ta ko‘chmanchi, 8 aralash aholi volostlari), 629 ta qishloq jamoalari (549 ta o‘troq, 80 ta ko‘chmanchi aholi jamoalari) bo‘lgan. Rus qishloq jamoalari Marg‘ilon uyezdida Rus, Namangan uyezdida Uspenskoye, Andijon uyezdida Nikolayevskiy, O‘sh uyezdida esa Pokrovskiy posyolkalari mavjud bo‘lgan.

Namangan uyezdi shimol va shimoli g‘arb tomondan Namangan tog‘lari tizmasining suvayirgich tizmalari bilan, sharq tomonidan esa Norin va Uzun Ayton daryolari bilan chegaralangan. Mazkur chegaralar doirasidagi hududning umumiy maydoni taxminan 12 ming kvadrat verstni tashkil etadi va u tog‘li hamda tekis (yassi) qismlarga bo‘linadi. Biroq hudud chegaralari hozircha qat‘iy aniqlanmagan bo‘lib, bunga Namangan va To‘qmoq uyezdi boshliqlari o‘rtasidagi, shuningdek Chust uyezdi boshlig‘i bilan bog‘liq bo‘lgan hududiy noaniqliklar sabab edi.

1876-yili Namangan uyezdi 16 ta Sardoba, Labaytog‘a, Chuqur ko‘cha, Degrezli, Yangiqo‘rg‘on, Chortoq, Uychi, Kepin, Pishqaron, Qirg‘izqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Xonabod, Nanay, Saruy, Bag‘ish, Qirqo‘g‘il volostlari va 84 ta qishloq va ko‘chmanchi aholi jamoalaridan iborat edi. Ularda 13800 ta xonadon va 3063 ta o‘tovda uyezd aholisi istiqomat qilar edi.

Arxiv ma‘lumotlariga ko‘ra, 1879-yilgi hisobotda Namangan uyezdi sug‘orish tizimiga ko‘ra asosiy besh guruhga ajratiladi: Kosonsoy, Pasha-ota, Qorasuv, Yangiariq va Xonariq guruhlari. Dastlabki uch guruh suv ta‘minoti jihatidan nisbatan kam suvli bo‘lib, ular asosan uyezd hududida boshlanadigan kichik tog‘ daryolari havzasiga mansundir. So‘nggi ikki guruh esa Norin daryosidan suv olishi sababli suv resurslariga boy hisoblanadi. Shu munosabat bilan Yangiariq va Xonariq guruhlari mansub sug‘oriladigan yer maydonlarida sholi ekini ustunlik qilgan. Aksincha Kosonsoy, Pasha-ota va Qorasuv guruhlari kiruvchi hududlarda ekin maydonlari asosan boshqa turdagi don ekinlarini yetishtirishga ixtisoslashgan. Kosonsoy sug‘orish tizimi guruhi: yuqori oqimi Chust uyezdidan boshlanib quyi oqimi Namangan uyezdiga, Tergachi, to‘raqo‘rg‘on, Shahand, Xonabod va Aysi volostlariga tegishli bo‘lgan. Ikkinchi guruh Pashaota: Pashaota va Noukant daryolaridan hosil bo‘lib Bag‘ish, Nanay, Yangiqo‘rg‘on, Pishqaron, Iskobot volostlari va Namangan shahrining shimoliy qismlarini suv bilan taminlagan. Uchinchi guruh Qorasuv: Pashaota daryosining o‘rta oqimidan ajrab chiqqan Chortoq soydan va qisman Pishqaransoy bilan to‘ldiriladi. Keyingi guruh Yangi-ariq: Narindan ajrab chiqqan Yangi-ariqdan hosil bo‘lgan Chagarxona, Qizilrobot, Uychi, Chortoq, Uychi, Chortoq va Xonabod volostlarini suv bilan ta‘minlagan. Ohirgi guruh Xonariq: Norin daryosining asosiy ariqlaridan bo‘lib 23 ta qishloqni suv bilan ta‘minlar edi. Bu sug‘orish tizimlari orqali uyezd hududidagi mahalliy aholi va dehqonlar foydalanishgan. Hamda har bir guruhga miroblar saylangan. Ularning saylanish tartibi shunday ediki har bir sug‘orish tizimi guruhi miroblari, o‘sha suv tizimi foydalanuvchi aholi orasidan ko‘rsatilib va ular tarafidan saylangan. Shu orqali aholi orasida suv taqsimotida nizo chiqmasligi va har bir hududning katta kichikligiga e‘tibor bergan holda adolatli taqsimlashga harakat qilingan.

Namangan uyezdida volostlar, qishloq va ko‘chmanchi aholi jamoalari soni o‘zgarib turgan. Dastlab 1875-yilda volostlar soni 12 tashkil qilgan keying yilga esa 2 ta qo‘shilgan. 1877-yilga kelib esa volostlar soni 22 taga, qishloq va ko‘chmanchi holi jamoalari 116 taga yetadi. 80-yillarga kelib esa 16 ta volost, 84 qishloq jamoalaridan iborat edi. 1875-yilda Namangan shahar qismi to‘rtta Sardoba, Labaytog‘a, Chuqurko‘cha, Degrezli volostlaridan, uyezd hududi esa sakizta Koson, To‘raqo‘rg‘on, Aysi, Shahand, Kepin, Uychi, Chortoq, Yangiqo‘rg‘on volostlaridan iborat edi. Keyingi yillarda Namangan uyezdida hududiy o‘zgarishlar amalga oshiriladi. 1876-yilda Yangiqo‘rg‘on volostidan ajratilib yana ikkita yangi Saroy va Qutlug‘said volostlari shakllantiriladi. 1877-yilgi hududiy o‘zgarishlar To‘raqo‘rg‘on, Shahand, Kepin, Koson, Yangiqo‘rg‘on va Qutlug‘said volostlarida yuzaga keladi. To‘raqo‘rg‘on, Shahand va Kepin volostlari hududi o‘rnida To‘raqo‘rg‘on, Xonabod, Shahand, Qirg‘izqo‘rg‘on va Kepin volostlari vujudga keladi. Koson va To‘raqo‘rg‘on volosti hisobidan Koson va Tergachi volostlari hududi yuzaga keladi. Yangiqo‘rg‘on volosti o‘rnida 3 ta Nanay, Yangiqo‘rg‘on, Pisharon volostlari vujudga keladi. Qutlug‘said volosti hududi hisobidan yana bitta yangi Bog‘ish volosti shakllantiriladi. Keyingi yillarga kelib Namangan uyezdi hududidan bir nechta volostlar Chust uyezdi tarkibiga o‘tadi. Koson va Qutlug‘said 1878- yilda, To‘raqo‘rg‘on, Tergachi, Aysi, Shahand, va Nanay volostidan bir qismi 1879 yilda Chust tarkibiga qo‘shiladi. 1880-yilda esa Namangan uyezdida hech qanday hududiy o‘zgarishlar ro‘y bermaydi.

Xulosa qilib aytganda Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi bosqinchilik siyosati natijasida Farg‘ona vodiysi hududida, xususan Namangan uyezdida keng ko‘lamli ma‘muriy-hududiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Qo‘qon xonligining tugatilishi va Farg‘ona viloyatining tashkil etilishi bilan birga, imperiya boshqaruv tizimiga mos ravishda uyezd, volost hamda qishloq va ko‘chmanchi aholi jamoalariga asoslangan yangi ma‘muriy tuzilma shakllantirildi. Tadqiqot natijalari shuni

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

ko‘rsatadiki, Namangan uyezdi hududi va uning tarkibiy bo‘linmalari doimiy ravishda o‘zgarib turgan. Volostlar sonining ortib-borishi yoki qisqarishi, ayrim hududlarning Chust uyezdi tarkibiga o‘tkazilishi imperiya ma‘muriy siyosatining moslashuvchan, ammo mahalliy manfaatlarni ikkinchi darajaga suruvchi xususiyatga ega bo‘lganidan dalolat beradi. Hududiy noaniqliklar, chegara masalalari va suv resurslari bilan bog‘liq muammolar ham ushbu davrning muhim jihatlaridan biri bo‘ldi. Sug‘orish tizimining besh asosiy guruhga bo‘linishi va har bir guruhda miroblar saylanishi mahalliy aholining suvdan foydalanishdagi an‘anaviy tajribasi saqlanib qolganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, imperiya ma‘muriyati bu tizimni o‘z nazorati ostiga olishga intilgan. Sug‘oriladigan yerlarning tabiiy-geografik xususiyatlariga qarab ekin turlarining farqlanishi esa Namangan uyezdida qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvining shakllanganidan dalolat beradi. Umuman olganda, Namangan uyezdida amalga oshirilgan ma‘muriy-hududiy o‘zgarishlar Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatini mahalliy darajada qanday tatbiq etilganini yaqqol namoyon etadi. Ushbu jarayonlarni o‘rganish Markaziy Osiyoda mustamlaka davri boshqaruv tizimi, hududiy siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni chuqurroq tahlil qilish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Кауфман К. П. Проект всеподданейшего отчета Ген. – Аьдютанта К. П. фон Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. – 1881. – СПб., 1885.
2. Статистический обзор Ферганской области за 1904 год. – Новый Маргелан, 1905. – С. 2.; Сухарева О. А., Турсунов Н. О. Из истории городских и сельских поселений Средней Азии второй половины XIX – начала XX в / Жилище народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1977.
3. O‘zMA F I-19, ro‘yxat- 1, 3-yig‘ma jild,
4. O‘zMA. 19-fond. 1-ro‘yxat, 256-yig‘ma jild,
5. O‘zMA F I-19, ro‘yxat- 1, 427-yig‘ma jild,
6. O‘zMA 19-fond, 1 ro‘yxat, 6079-yig‘ma jild, 39- varaq; Тиллабаев С. Б. XIX аср охири – XX асрнинг бошларида Туркистон ўлкасининг маъмурий-худудий бошқарув тизими ва унда маҳаллий аҳоли вқакиллариининг иштироки (Фарғона вилояти мисолида). Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент: ЎзР ФА Тарих институти, 2006.
7. O‘zMA F I-19, ro‘yxat- 1, 290-yig‘ma jild, 7-21-varaq